

O'ZBEK XALQ YERTAKLARI VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Choriyeva Nasiba Karimovna

Termiz davlat universitetining Pedagogika instituti, maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Xalq og'zaki ijodi va uning janrlaridan biri bo'lgan maqol janriga e'tibor beradigan bo'lsak, maqollar sodda, ixcham shaklga ega bo'lsada, o'zida chuqur ma'noni ifodalaydi. Maqollar biror qissa yoki hikoyaning butun bir mag'zini, syujetini tashkil etishi ham mumkin. Bu esa bir tomondan maqol janri xalq og'zaki ijodi va adabiyotning boshqa namunalari bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlasa, ikkinchi bir tomondan esa shu asarni yorqinroq ochib berishga, bola ongida umrbod saqlanib qolishga xizmat qiladi. Bunday jarayonlarga adibimiz Abdulla Qahhor asarlarida juda ko'p marta duch kelamiz. Shu o'rinda aytish mumkinki, Abdulla Qahhor xalq maqollaridan o'z o'rnida, mohirona foydalana olgan adibdir. U o'zining "O'g'ri" hikoyasi uchun "O'tning o'limi – itning bayrami" o'zbek xalq maqolini epigraf qilib tanlagan. Hikoyada kambag'al Qobil boboning ho'kizini o'g'irlab ketishi, o'g'rini topish maqsadida oraga qanchadan-qancha "tadbirkorlar"ning tushishi, ularning boboga hech qanday yordam bera olmaganligi va bu "kattalar" uchun bayram bo'lganligi voqeasi tasvirlanadi. Mana shu "O'tning o'limi – itning bayrami" o'zbek xalq maqoli asosida "O'g'ri" hikoyasi yuzaga kelgan bo'lsa ham ajab emas. Ushbu hikoyadan xulosa qilib aytish mumkinki, maqollar tarixiy davrlardagi xalqlarning turmush tarzi, hayotiy kechinmalari, orzu-umidlari va yuzaga keladigan tarixiy voqea va hodisalarni ifodalaydigan va shu xalq tomonidan yaratiladigan, juda kam o'zgarish bilan saqlanib kelayotgan kichik, ixcham shaklga keltirilgan, o'zida chuqur ma'noni ifodalaydigan kichik bir badiiy asardir.

O'zbek xalq maqollarini yosh bolalar ongiga singdirishda xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan, turli xil didaktik o'yinlardan, topqirlik mashqlaridan, ko'rgazma qurollardan unumli foydalanish yaxshi samara beradi. Xalq maqollari bolalar ongiga tezroq yetib borishi, tushunarli bo'lishi, xotirasida umrbod saqlanib qolishi uchun bolalarga maqollar bilan bog'liq hikoyalar, qissalar, ertaklar aytib berilishi ham mumkin. Bu hikoya va qissaning bolalarbop bo'lishi va ular tushunadigan tilda sodda, ixcham va syujeti uncha murakkab bo'lmagan va eng asosiysi hikoya yoki qissaning birorta maqol yoki shu kabi hurhikmat ma'noli ibora tashkil etishi kerak. Ana shunday hikoyalar sirasiga ulug' adibimiz hikoyanavis Abdulla Qahorning "Bemor" hikoyasini kiritish mumkin. Hikoyada keltirilganidek bir kambag'al oilaning turmush tarzi, kambag'allik, qo'li kaltalik qilib bemor ayolini davolata olmagan nochor hikoya qahramoni va uning endigina tetapoya qilayotgan va hali tili chiqib ulgurmagan qizalog'i juda ham achinarli qilib tasvirlangan. Qizaloqning erta tongdan uyg'onishi va o'zi tushunmagan holda allaqachon yorug' dunyoni tark etgan onasining dardiga shifo tilab: - "Xudoyo ayamding daydiga davo beygin" – deyishi har qanday bolani, nafaqat bolani, balki kattalarni ham jumbushga keltiradi. Shu kabi hikoyalarga qadimdan sayqallanib kelayotgan "Osmon yiroq yer qattiq" maqoli to'g'ri keladi. Bu maqol ham ajdodlarimizning turmush tarzidan, o'tmishda kechirganlaridan dalolat berib turuvchi ko'zgu hisoblanadi. Mana shunday hikoyalar bilan bog'liq holdagi maqollarni aytish kichik yoshidagi bolalarga juda tez ta'sir qiladi. Bu tipdagi maqollar qadimda adolatsizlikdan, chorasizlikdan, haqsizlikdan va tengsizlikdan dalolat beradi. Bu esa kichik maktab yoshidagi bolalar qalbida mana shunday yovuz illatlarga qarshi nafrat uyg'onadi va oqdan qorani farqlay bilishga undaydi. Bolalar ongiga bugungi kun yaratuvchanligini, ma'naviyatini va bunyodkorlik g'oyalarini sindirishga qulay sharoit yaratadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tarbiyachilariga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilayotganligi ham bejiz emas. Qadimdan buyuk pedagoglardan qolgan shunday naql bor, "Besamar ketgan har bir soat dars kelajakka qilingan hiyonatdir"- mana shu mo'jazzgina naqldan ham ko'rinib turibdiki, shaxs kamolotining asosiy poydevori –maktabgacha bo'lgan davrda beriladigan ta'lim va tarbiyadir. Bir-biri bilan bog'liq bu ikki tushunchani tor ma'noda olib qarasa, ya'ni tarbiyaga muhtoj bir go'dak misolida ko'rsak, go'daklikdan boshlab shunday tarbiya berilishi kerakki, kelajakda hayot yo'lida uning ongida ma'naviy bo'shliq hosil bo'lmasin. Hayotga to'g'ri ko'z bilan qaraydigan, ezgu fikrlaydigan, ezgu faoliyat yuritadigan komil shaxs bo'lib jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila olsin. Zero, ma'naviyati past odam jamiyat taraqqiyotiga hech qanday foyda keltira olmaydi. Keng ma'noda esa biror jamiyatning misolida olsak, yoshlarning qay darajada ilmiy, jismoniy, huquqiy, ma'nabiy salohiyatga ega ekanligi va davlatning boshqa davlatlar oldidagi mavqeini belgilaydi. Davlatning qudrati, buyukligi shu davlat yoshlarining ilmiy salohiyati va ma'naviyati bilan o'lchanadi. Ma'naviyatning asosini ta'lim va tarbiya tashkil qiladi. Ana shu ta'lim va tarbiyani amalga oshiruvchi shaxs bu tarbiyachilardir. Tarbiyachi – bu yaratuvchi, mohir san'atkor. Uning yaratuvchanligi davlatning asosini, poydevorini qurib berishi, mohir san'atkorligi yoshlarga ta'lim va tarbiya berib, maktabga yo'naltirishidir. Shu o'rinda yuksak sarkarda

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

sohibqiron Amir Temurning bir fikriga to'xtalib o'tishni joiz topdik: - "Bizning davlatimiz qudratiga shubha bilan qaraganlar biz qurgan imoratlarga boqsin". Tarbiyachilarni ham majoziy ma'noda o'sha imoratlarga o'zshatish mumkin. Imoratlarning salobatligi, sirliligi Amir Temur davlatining qudratini belgilasa, tarbiyachilarning qudrati – u tarbiyalagan shogirdlarining erishgan yutuqlarida o'z aksini topadi. Tarbiyachi o'z kasbiga qanchalik mas'uliyat bilan yondoshsa, bolalarga o'z farzandidek qarasa o'sha bolada, o'sha bog'chada, o'sha jamiyatda yuksalish bo'ladi. Bugungi kunning tarbiyachilari tarixni yaxshi bilsa, milliy qadriyatlarimizga sodiq bo'lsa, dunyoviy bilimlardan, zamonning shiddatkor voqealaridan xabardor bo'lib, ularni tahlil qila olsa, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan oqilona foydalana olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shu o'rinda yana bir maqolni eslatib o'tmoqchimiz: "Kasbga halollik ham bir ibodatdir".

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya-izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvov-m-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m>
2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).
3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>
4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>
5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>
6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmmr&volume=11&issue=10&article=023)
7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>
8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%2028%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20E2%84%9626%2028%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>
10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>
11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>
12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>
13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies

Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijps.iscience.uz/index.php/ijps/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // *European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»:* LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.